

**Husanov Azizbek**

Nizomiy nomidagi TDPU

Te'xnalogik ta'lif fakulteti Ta'lif va tarbiya nazariyasi yo'nalishi 1 kurs magistri

---

## **TINCHLIK VA XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH, XALQARO HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISH**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, shuningdek, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish mavzusi yoritilgan. Maqolada davlatlar o'rtasida tinchlikni saqlashda duch keladigan muammolar va ularni hal etish uchun xalqaro tashkilotlarning roli haqida so'z yuritilgan. Xalqaro hamkorlikning ahamiyati, davlatlar o'rtasidagi diplomatik munosabatlar va tinchlikni saqlash missiyalarining ahamiyati ko'rsatilgan.

**Kalit so'zlar:** Tinchlik va xavfsizlik, xalqaro hamkorlik, global xavfsizlik, BMT, diplomatik munosabatlar, yevropa Ittifoqi, tinchlikni saqlash.

### **ОБЕСПЕЧЕНИЕ МИРА И БЕЗОПАСНОСТИ, РАЗВИТИЕ МЕЖДУНАРОДНОГО СОТРУДНИЧЕСТВА**

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются вопросы обеспечения мира и безопасности, а также развитие международного сотрудничества. Описаны проблемы, с которыми сталкиваются государства в вопросах обеспечения мира, а также роль международных организаций в их решении. Особое внимание уделено важности международного сотрудничества, дипломатических отношений между государствами и миротворческим миссиям.

**Ключевые слова:** Мир и безопасность, международное сотрудничество, глобальная безопасность, БМТ, дипломатические отношения, Европейский Союз, миротворчество.

### **ENSURING PEACE AND SECURITY, DEVELOPMENT OF INTERNATIONAL COOPERATION**

**Annotatsion:** This article discusses the issues of ensuring peace and security, as well as developing international cooperation. It highlights the problems that states face in ensuring peace and the role of international organizations in solving them. The importance of international cooperation, diplomatic relations between states, and peacekeeping missions is emphasized.

**Key words:** Peace and security, international cooperation, global security, BMT, diplomatic relations, European Union, peacekeeping.

---

Tinchlik va xavfsizlik – har bir davlat va xalqning asosiy orzusi va strategik maqsadi bo'lib, ularning jamiyatda barqarorlik va farovonlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Bugungi kunda global miqyosda xavfsizlik va tinchlik masalalari nafaqat ichki siyosatni, balki xalqaro munosabatlarni ham shakllantiradi. Xalqaro hamkorlik esa bu jarayonda muhim rol o'ynaydi. Tinchlikni saqlash va xavfsizlikni ta'minlash uchun davlatlar o'rtasida o'zaro tushunish, yordam va resurslarni birlashtirish zarur. Tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashda bir qator muammolar mavjud. Tabiiyki, har bir davlatning o'z manfaatlari va xavfsizlik siyosatlari bor, ammo global miqyosda bu masalalar faqat birgalikda hal etilishi mumkin. Tinchlikni ta'minlash jarayonida milliy chegaralar, iqtisodiy resurslar, ijtimoiy-iqtisodiy inqirozlar, etnik va dini ziddiyatlar, terrorizm, qurolli

to'qnashuvlar kabi xavf-xatarlar mavjud. Tinchlikni saqlash uchun xalqaro tashkilotlar, masalan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), ShHQ va boshqa bir qator xalqaro tashkilotlar faoliyat yuritmoqda. Bu tashkilotlar doirasida davlatlar o'rtaida diplomatik muzokaralar, tinchlikni saqlash missiyalari va xalqaro huquq normalarini qo'llash orqali global xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Xalqaro hamkorlik – bu davlatlar, tashkilotlar va boshqa sub'ektlar o'rtaida tinchlikni saqlash va xavfsizlikni ta'minlashda birgalikda ishslash jarayonidir. Yevropa Ittifoqi, NATO va BMT kabi tashkilotlar hamkorlikni rivojlantirish orqali global xavfsizlikka hissa qo'shamdi. Xalqaro hamkorlik orqali davlatlar bir-birining tajribalaridan foydalaniib, global muammolarni hal qilish uchun eng samarali yechimlarni ishlab chiqadilar. Shuningdek, mintaqaviy xavfsizlik tashkilotlari, masalan, Osiyo xavfsizlik hamkorligi (SCO) va Yaqin Sharq mintaqasida tinchlikni saqlashga qaratilgan diplomatik sa'y-harakatlar ko'rsatiladi. Bu kabi tashabbuslar davlatlar o'rtaida ishonchni oshirish, mojarolarni oldini olish va global barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti — butun yer sayyorasida tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, davlatlararo hamkorlikni rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan eng nufuzli tuzilma. BMT a'zosi bo'lgan har bir davlat xalqaro munosabatlarning asosiy tamoyillari aks etgan va xalqaro shartnomalardan iborat tashkilot ustavida belgilangan majburiyatlarga amal qiladi. Qurolli to'qnashuvlar, xalqaro tinchlik va barqarorlikka tahdidlar kuchaygan sharoitda BMTning tinchlik va xavfsizlik, barqarorlik, inson huquqlarini himoya qilish, barqaror rivojlanishni ta'minlash yo'lida a'zo davlatlar sa'y-harakatini birlashtirishga qaratilgan universal xalqaro tuzilma sifatidagi roli va mas'uliyati tobora ortib bormoqda. Keyingi yillarda O'zbekiston va BMT o'rta sidagi hamkorlik yuksak darajaga ko'tarildi. 140 ta qo'shma dastur va loyihibar muvaffaqiyatli amalga oshirildi. O'zbekiston tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasining 6 ta rezolyutsiyasi qabul qilindi, Orolbo'yi mintaqasi aholisini ijtimoiy qo'llab--quvvatlash uchun maxsus Trast fondi faoliyat yuritmoqda. O'zbekiston Tashkilotning qator nufuzli tuzilmalari a'zosi etib saylandi va ularning ishida faol ishtirop etib kelmoqda. Birgalikda global kun tartibiga ega, xususan, oziq--ovqat xavfsizligini ta'minlash, turizmni rivojlantirish, kambag'allik va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish masalalari bo'yicha yirik xalqaro tadbirlar o'tkazilmoqda. Mamlakatimiz BMTning to'laqonli a'zosi sifatida BMTning maqsad va nizomlariga qat'iy rioya qiladi, o'z ovozi va mavqeiga ega davlat sifatida esa Tashkilot faoliyatiga oid favqulodda muhim va dolzarb tashabbuslarni ilgari suradi. Bu, ayniqsa, 2017 yilda Prezident Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasida ilk chiqishidan buyon yaqqol namoyon bo'lmoqda. Davlatimiz rahbari Bosh Assambleya 78-sessiyasida ham hamjihatlik va amaliy hamkorlik ruhini saqlash, umumiy manfaatlarni mavjud ziddiyatlardan yuqori qo'ygan holda mamlakatlarni jipslashtirish zarurligini qayd etdi. Bu borada aniq misol sifatida umumiy xavfsizlik va taraqqiyotga qaratilgan "Samarqand birdamlik tashabbusi"ni ko'rsatish mumkin. Uning asosiy maqsadi turli mamlakatlar va xalqlarning bugungi kuni va istiqboli uchun mas'uliyatni har tomonlama chuqur anglash, ochiq va konstruktiv hamkorlikka tayyor barcha tomonlarni global muloqotga jalg qilishdan iborat. O'zbekiston o'z tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilagan asosiy xalqaro tashkilot bilan hamkorlikka katta ahamiyat qaratadi. Davlatimiz BMT Ustavi, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va boshqa asosiy xalqaro shartnomalardagi maqsad va prinsiplarga sodiq bo'lib, o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni og'ishmay bajarib kelmoqda. BMTning teng huquqli va to'laqonli a'zosi sifatida O'zbekiston tenglik, hamkorlik, ko'ptomonlamalik va xalqaro siyosiy tizimni himoya qilish prinsiplariga so'zsiz amal qilishini namoyish etmoqda. So'nggi vaqtarda xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, yangi global qurolli to'qnashuvlarning oldini olish, mamlakatlar o'rta sidagi hamkorlikni yo'lga qo'yish, global muloqot, global harakatlar va butun dunyoda inson huquqlarini himoya qilish kabi g'oyalarni faol ilgari surmoqda. Mamlakatimiz BMT va uning qator ixtisoslashtirilgan muassasalari, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro mehnat tashkiloti, Jahon intellektual mulk tashkiloti, Fan, ta'lim va madaniyat masalalari bo'yicha

tashkilot, Jahon oziq-ovqat tashkiloti, Jahon banki, MAGATE va boshqa xalqaro tashkilotlar ishida faol ishtirok etmoqda.

Tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash uchun davlatlar o'rtasida kuchli xalqaro hamkorlik zarur. Xalqaro tashkilotlar va mintaqaviy tashkilotlar tinchlikni saqlash, xavfsizlikni ta'minlashda muhim rol o'yнaydi. Global xavfsizlikni ta'minlash faqat birgalikda ishlash orqali mumkin, chunki har bir davlatning ichki siyosati, iqtisodiyoti va xavfsizligi butun dunyo xavfsizligiga ta'sir ko'rsatadi. Tinchlikni saqlash uchun xalqarolararo hamkorlikni rivojlantirish, diplomatik sa'y-harakatlarni kuchaytirish va barcha taraflarning manfaatlarini hisobga olish zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. (2022). Xalqaro tinchlikni saqlash va xavfsizlikni ta'minlash. BMT nashri.
2. Xalqaro xavfsizlik va tinchlik. (2021). Yevropa Ittifoqi va NATO jurnal.
3. Anderson, P. (2023). Global Security and Peacekeeping. Oxford University Press.
4. Smith, J. (2020). International Cooperation in Conflict Resolution. Cambridge University Press.